INSTRUKSIYA · 12 QADAM

Avtomaktab va avtodrom uchun instruksiya

Bitta kabinetda hamma instruktorlar: jadval, darslar va oʻquvchilar. Administrator yozadi, egasi kim nima qilganini koʻradi. Oʻquvchilar sizni katalogdan topib, onlayn yoziladi.

1-QISM · 4 QADAM

Kabinet ochish


1 **avtohayda.uz/business/team ni oching**

«Bepul boshlash»ni bosing va Telegram orqali kiring. Sahifangiz katalogda boʻlsa — shu yerda nomi boʻyicha toping.



2 Tashkilot ma’lumotlari

Turini (avtomaktab yoki avtodrom), nomini, shahar va tumanni tanlang. Telefon raqami Telegram’dan olinadi.



3 Dars turi va narxi

Qaysi darslar o‘tilishini va bir soatlik narxni yozing. Egasining o‘zi dars bersa — «O‘zim ham dars beraman». «Qonunga muvofiq ishlaymiz» belgisini qo‘yib, «Davom etish»ni bosing.



4 Kabinet ochildi — «Boshlash» qadamlari

O‘quvchilar onlayn yozila boshlashi uchun to‘rt qadam: joy sahifasi, instruktorlar, ish vaqti va Telegram bot.




2-QISM · 2 QADAM

Joy sahifasi


5 Joyingizni toping

«Joy sahifasi» → nomi bo‘yicha qidiring. Ro‘yxatda bo‘lmasa — «Ro‘yxatda yo‘q — yangi sahifa ochish».



6 So‘rov yuboring

AvtoHayda jamoasi sahifadagi raqamga qo‘ng‘iroq qilib tekshiradi. Tasdiqlangach, sahifa kabinetingizda bo‘ladi — Telegram’ga xabar keladi.




3-QISM · 5 QADAM

Instruktorlar


7 Instruktor taklif qilish

«Jamoa» ⟶ «Instruktor taklif qilish». Havolani instruktorlar guruhiga tashlang — har biri o‘z Telegram’i bilan qo‘shiladi. Administrator ham shu yerdan taklif qilinadi.



8 Instruktor havolani ochadi

U «Qo‘shilishni so‘rash»ni bosadi; siz tasdiqlaguncha kabinetni ko‘rmaydi.




9 Siz tasdiqlaysiz

«Bugun» ekranidagi «Qo‘shilish so‘rovlari»da «Qo‘shish». «Boshlash» ro‘yxatida «Instruktorlar» belgilanadi.




10 Har instruktorning ish vaqti

«Ish vaqti»da instruktorni tanlab, kunlarini belgilang. O‘quvchilar faqat shu soatlarga onlayn yoziladi.



11 «Jadval» — instruktorlar darslari

Kunni tanlang: har instruktorning darslari va bo‘sh soatlari. Bir nechta instruktor bo‘lsa — «Hammasi»: jadvallar yonma-yon.




4-QISM · 1 QADAM

Tarif

12 Tarif va sinov muddati

«Boshqaruv → Tarif»: sinov qachon tugashi, instruktor o‘rinlari va narx. Sinovda — 5 tagacha instruktor.



Bepul va Pro: nima kiradi, shartlar

BEPUL

0 so‘m

- ✓ Sahifa va katalogda ko‘rinish: narxlar, mashinalar, sharhlar
- ✓ Telefon va Telegram tugmasi — o‘quvchi sizga qo‘ng‘iroq qiladi yoki yozadi
- ✓ Instruktorlar sahifada — soni cheklanmaydi
- ✓ Yozilgan darslar Pro tugagach ham o‘z kuchida

PRO

149 000 so‘m — bir instruktor uchun, oyiga · QQSsiz

- ✓ Onlayn yozilish: o‘quvchi bo‘sh vaqtingizni ko‘rib, o‘zi yoziladi
- ✓ Jadval, tez yozish, ko‘chirish, eslatmalar, kutish ro‘yxati
- ✓ Administrator, bir nechta filial, jamoaning yonma-yon jadvali
- ✓ Paketlar, takroriy darslar, pul hisoboti, «Kelasizmi?» so‘rovi
- ✓ Telegram kanal va guruhga avtomatik e’lonlar, aksiyalar

- ✓ Har yangi kabinetga 30 kun Pro bepul — karta va shartnoma so‘ralmaydi.
- ✓ Sinov tugagach Pro yana 7 kun ishlaydi. To‘lanmasa, kabinet Bepul tarifga o‘tadi: sahifa katalogda kontakt bilan qoladi, onlayn yozilish yopiladi. Hech narsa o‘chmaydi.
- ✓ Narx onlayn yozilish qabul qiladigan instruktorlar soniga qarab: 1 instruktor — 149 000, 4 instruktor — 596 000 so‘m oyiga. Administratorlar va filiallar narxga qo‘shilmaydi.
- ✓ Yillik to‘lovda — 10 oy narxi.
- ✓ Pro ulash hozircha AvtoHayda jamoasi orqali: «Boshqaruv → Tarif» → «AvtoHayda jamoasiga yozish».
- ✓ Asoschi hamkor — litsenziyali avtomaktab va avtodromlar uchun: 3 oy Pro bepul, keyin 3 oy −20%. Toshkentda 10 ta, har viloyatda 5 tadan tashkilot; yozma kelishuv bilan.
- ✓ Dars pulini o‘quvchi sizga to‘laydi — AvtoHayda foiz olmaydi.